



# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№1 (787), 2025-yil 15-yanvar

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



## ■ Sarhisob

Katta niyatlar va maqsadlar bilan mamlakatimizning kelgusi taraqqiyotini belgilab beradigan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida muhim bosqich bo‘ladigan 2025-yilga qadam qo‘ydik. Shuni quvonchlik, yangi yilning ilk kunlaridanoq zavod va konlarimizda ish yuksak maqsadlarimizga yarasha tashkil etilmoqda. Zero, kundalik ish sur‘ati pirovardida oylik va yillik sarhisoblarda o‘z ifodasini topadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar markazida inson, uning qadri, huquqlari, manfaati va baxtu saodati turganligi har birimizdan bugun kechagidan, ertaga bugungidan barakaliroq mehnat qilish, belgilangan rejalarni ortig‘i bilan bajarishni taqozo etyapti.

## “QIZILQUM” KON BOSHQARMASI

uchun 2024-yil zafarlarga boy bo‘ldi



“Qizilqum” kon boshqarmamiz jamoasi joriy yilda 2024-yilga nisbatan ma‘danni qayta ishlashni 102,1, yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarishni 101,2, temir kuporosi tuzini 112,3, temir kuporosi eritmasini 140,8 foizga yetkazishdek yuksak vazifalarni zimmasiga olgan. Shuningdek, kon boshqarmasining barcha uchastkalarida yonilg‘i-moylash materiallari, ehtiyot qismlar, elektr energiyasidan tejamkorlik bilan foydalanish asosida mahsulot tannaxirini arzonlashtirishga erishish faoliyatimizning asosiy mezon bo‘lib qoladi. Bu, bugungi kunning qat‘iy talabidir va ishchi-xizmatchilarning, muhandis-texnik xodimlarimiz ana shu mas‘uliyatni his qilgan holda mehnat qilishayapti.

Kon boshqarmasi jamoasining yakunlangan yilda qo‘lga kiritgan yutuqlari xususida ham to‘xtalib o‘tmoqchiman. Darvoqe, ahil jamoamiz uchun 2024-yil har tomonlama esda qoladigan, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarlar barakali yil bo‘ldi. Kon boshqarmasining asosiy bo‘linmalaridan biri 1-gidrometallurgiya zavodi tashkil topganligining 60 yilligi keng nishonlanib, ilg‘or ishchi-xodimlar va mutaxassislar turli darajadagi “Konchilik shuhrati” ko‘krak nishonlari, “NKMK faxriysi” unvoni va kombinat Faxriy yorliqlari bilan taqdirlandilar.

Kon boshqarmamizda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha 2024 yilga mo‘ljallangan rejalari oshirib ado etildi. Jumladan, tog‘ jinslarini qazib olish 106,6 foizga, ma‘danni qayta ishlash 108,3 foizga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish 109,2 foizga bajarilgani fikrimiz isbotidir. Mahsulot tannaxirini pasaytirish yuzasidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilgani o‘zining samarasini berdi. Bu boradagi reja 123,8 foizga bajarilgani ta’kidlashga munosib yutuqlarimizdan bo‘ldi. Boshqacha aytganda, yil davomida 311 milliard 383 million so‘m iqtisodiy tejamkorlikka erishdik.

ishlab chiqarish bo‘yicha davlat buyurtmasi sharafla bajarildi.

Bunday quvonchli natijalar har ikkala zavod jamoasi katta imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beriyapti. 1-gidrometallurgiya zavodida 1 million 930 ming tonna, 6-gidrometallurgiya zavodida 5 million 30 ming tonna ma‘dan qayta ishlandi.

Kon boshqarmamizda temir kuporosini ishlab chiqarish hajmini oshirish ham e‘tiborimizda bo‘ldi. 1-GMZ 1-texnologik sexining magnit fraksiya qayta ishlash bo‘linmasini rekonstruksiya qilish va kengaytirish temir kuporosini ishlab chiqarishni 920 tonnadan 1471 tonnagacha, 2023-yildagisiga nisbatan 1,6 baravar oshirish imkonini berdi. “Pistali” koni va 6-gidrometallurgiya zavodining ishga tushirilishi bilan Nurota tumanining “Tinchlik”, “Qizilqum”, “Temirqovuq” mahallalarida istiqomat qilayotgan, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta‘minlangan oilalarining yuz nafarga yaqin a‘zolari ishga qabul qilinib, doimiy daromad manbaiga ega bo‘ldilar. Yangi zavod va kon sanoat maydonida mehnat qilayotganlar uchun barpo etilgan vaxta shaharchasida ishchi-xizmatchilarning uchun barcha zarur sharoitlar yaratildi.

“Yashil makon” umummilliy harakati doirasida hududda so‘nggi ikki yil bahor va kuz mavsumida 67 ming 834 ta manzarali, 2 ming 500 ta mevali daraxtlar, 158 ming dona butasimon ko‘chatlar o‘tqazildi, “yashil qilib” hosil qilindi.

Hozirgi kunda “Daykali”, “Qorotog‘”, “Qoraqo‘ton”, “Pistali” konlaridan qazib chiqarilayotgan ma‘dan gidrometallurgiya zavodlarimizda qayta ishlamoqda. “Pistali” konini kengaytirish maqsadida “Oltin diyor” koni, shuningdek, kelgusida kon boshqarmamizda mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishni ko‘zlab “Baxtili”, “Qumsoy”, “Bozotog‘” va boshqa istiqbolli konlarda geologik-qidiruv va kon ishlari olib borilmoqda.

Ahil jamoamiz texnologik jarayonlarni muttasil takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish, har bir uchastkada mehnat intizomiga qat‘iy rioya qilish evaziga yangi – 2025-yilda yanada yuksak marralarga erishadi.

**Shuhrat XATAMOV,**  
“Qizilqum” kon boshqarmasi bosh muhandisi.

## YANGI MARRALARNI KO‘ZLAYOTGAN

### “JANUBLIKLAR”

Muhim voqealarga boy bo‘lgan 2024-yil ham tarix sahifalariga ko‘chdi. Yangi yilning dastlabki kunlarida har bir inson o‘tgan yilda amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalarni sarhisob qilishi tabiiy hol albatta. Bunyodkorlikka daxldor ishlar insonning qalbida faxr-iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi. Minglab konchilarni xalq farovonligi, yurt ravnaqi yo‘lida mehnat qilishdek sharafli maqsad sari birlashtirgan Janubiy kon boshqarmasi direktori **Tolibboy Yuldashev** bilan suhbatimiz yil sarhisobi, istiqboldagi rejalarga bag‘ishlandi.



– Siz rahbarlik qilayotgan jamoa 2024-yil boshida o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishdimi?

– Maqsadlarimizga erishishga intildik. Janubiy kon boshqarmasining iqtisodiy ko‘rsatkichlari avvalgi yillarga nisbatan oshdi, amalga oshirilgan loyihalar salmoqli bo‘ldi. Erishgan yutuqlarimiz o‘zimizniki. Hali oldimizda bajarishimiz lozim bo‘lgan vazifalar, talaygina ishlar kutib turibdi.

Aslida, har bir insonni, u rahbarimi

yoki oddiy ishchimi, hayotning o‘zi tarbiyalab boraveradi. Tarbiyalaydi deganim, har bir yilga xos xulosa, saboqlar bo‘ladi va kishi shunga qarab kelgusi yil rejalarni belgilab oladi. Shiddatli davr odamlardan yuksak marralar sari intilishni taqozo etmoqda. Yangi yilda ulkan rejalarni tuzganmiz, oldimizga katta maqsadlar qo‘yganmiz.

– **Tolibboy Norboevich, yangi 2025-yilga ham qadam qo‘ydik. 2024-yilda Janubiy kon boshqar-**

**masi hayotidagi eng muhim yagnilik sifatida nimani aytgan bo‘lardingiz?**

– Yil davomida Janubiy kon boshqarmasi hayotida salmoqli o‘zgarishlar, yangiliklar bo‘ldi. Yurtimizning iqtisodiy ravnaqi yo‘lida yaxshi natijalarga erishib kelayotgan kon boshqarmamiz bo‘linmalarining olti ming nafarga yaqin malakali mutaxassislari, ishchi-xodimlari astoydil mehnat qilishdi. Natijada ishlab chiqarish va bunyodkorlikda ulkan

yutuqlar va muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. 2024-yilgi ko‘rsatkichlar jamoamizning samarali faoliyat yuritayotganidan dalolat berayapti. Respublikamiz xazinasiga oltin etkazib berish buyurtmasi oshirib bajarildi. Korxonani rivojlantirish borasida ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi” bo‘yicha olib borilgan ishlar natijasida mahsulot ishlab chiqarish tannaxirini kamaytirishga muvaffaq bo‘ldik.

**Davomi 2-betda** ➤

## ■ 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

# “YANGI O‘ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!”

Mamlakatimizda Vatan himoyachilari kuni bayrami tadbirlari ana shu shior ostida ko‘tarinki ruhda davom etmoqda. Tizimda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoyalash, jismonan va ma‘nan barkamol etib tarbiyalash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilyapti. Harbiy qismlar infratuzilmasi yaxshilanib, shaxsiy tarkib har tomonlama qulay, barcha zarur shart-sharoitlarga ega shinam xizmat xonalari bilan ta‘minlanmoqda. Mudofaa vazirligining Navoiy viloyatida joylashgan harbiy qismlari yirik sanoat obyektlari, jumladan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining muhim ishlab chiqarish ob‘ektlarini qo‘riqlashga safarbar etilgan.

Targ‘ibot guruhi tomonidan vatanparvarlik o‘ligi doirasida Qurolli Kuchlarning harbiy-jangovar qudratini oshirish, xizmatchilarning ma‘naviy sahoiyatini yuksaltirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda tinchlik va osoyishtalikning ahamiyati, “Xalq va armiya – bir tanu bir jon!” tamoyilining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan ma‘naviy-ma‘rifiy uchrashuvlar hamda davra suhbatlari o‘tkazilmoqda.

Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligiga qarashli qo‘shilma va unga bo‘ysunuvchi harbiy qismlar tomonidan o‘tgan 2024-yilda umumta‘lim maktablari, maktabgacha ta‘lim muassasalari va aholi o‘rtasida ikki mingga yaqin tarbiyaviy va mafkuraviy yo‘nalishdagi tadbirlar o‘tkazildi. Buyuk bobokalonlarimizning hayoti va faoliyati, mardligi, jasoratini o‘quvchi-yoshlar ongiga singdirish maqsadida harbiy qismlarga biriktirilgan, chekka hududlarda joylashgan umumta‘lim maktablarida Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va vatanparvarlik tematik o‘quv sinflari tashkil etildi.

Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy o‘q‘llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida qo‘shilma miqyosida 30 nafardan ortiq harbiy xizmatchilarga yangi xonadonlar kaitlari, harbiylarning farzandlariga oliy ta‘lim muassasalariga kirish uchun 23 ta imtiyozli kvotalar topshirildi.



Mudofaa vazirligi miqyosida o‘tkazilgan tanlov natijalariga muvofiq qo‘shilma komandiri podpolkovnik A‘zamjon Mirahmedov “Doviyurak jangchi” ko‘krak nishoni sohibi bo‘ldi. Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘limi boshlig‘i mayor Behruz G‘afurov “Harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalashning ijtimoiy falsafiy omillari” mavzusida falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Yil davomida qo‘riqlanayotgan o‘ta muhim toifalangan obyektlarda 533 marotaba qoidabuzarlik va moddiy boyliklarni noqonuniy olib chiqilishining oldi olindi. Qismlar harbiy xizmatchilari mamlakatimizda o‘tkazilgan turli jangovar tayyorgarlik va sport musobaqalarda yuqori tayyorgarlikka ega ekanliklarini amalda isbotlab, 23 marotaba faxrli o‘rinlarni egalladilar. O‘tgan yili qator tanlov va bellashuvlarda qu-

vonchli natijalar qo‘lga kiritildi. Mudofaa vazirligi tomonidan aprel oyida respublika miqyosida o‘tkazilgan ommaviy sport musobaqasida Navoiy viloyatida joylashgan Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligining harbiy qismlari faxrli 1-o‘ringa sazovor bo‘ldilar. Oddiy askar Shohsanam Erkinova sportning kikkobs turi bo‘yicha respublikada g‘olib, Toshkentda o‘tkazilgan jahon chempionatida ikkinchi o‘rinni olishga musharraf bo‘ldi. E‘tiborlisi, u 2024-yil ushbu sport yo‘nalishi bo‘yicha “O‘zbekiston

sport ustasi” unvonini qo‘lga kiritdi. Shuningdek, harbiylarning farzandlari ham turli sport musobaqalarida faxrli o‘rinlarni egallab kelishayapti. Harbiylik insondan mard, jasur va fidoyi bo‘lishni talab qiladi. Harbiy qismlarning muhim obyektlarni qo‘riqlashdek burchini sharafla bilan ado etayotgan Vatan posbonlari buni yurakdan his etishadi. Ularning mahorati, tajribasi hamda harbiylik kasbidagi bilimlari e‘tirofga munosib.

**Akmal DAMINOV,**  
Mudofaa vazirligining Navoiy shahridagi qo‘shilma komandiri o‘rinbosari.



## ■ Sarhisob

YANGI MARRALARNI  
KO'ZLAYOTGAN  
"JANUBLIKLAR"

## ■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Energoresurslar iste'molini qisqartirish, xomashyo va materiallardan samarali foydalanish, texnologik jarayonlarda yo'qotishlarni kamaytirish, mehnat umumdorligini oshirish yo'li va boshqa ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish hisobiga ancha mablag' tejaliishiga erishildi.

Yutuqlarni birma-bir sanab o'tmasdan eng muhim yangilik sifatida "Zarmitan" sanoat maydonida "Skip" va "Klet" harakatlanadigan shaxta chuqurligi 1 000 metrga etganligini ta'kidlashni istardim.

Yaqin kunlarda ishga tushiriladigan bunday chuqurlikdagi shaxta Markaziy Osiyoda yagona bo'ladi va ming metr chuqurlikdagi oltin ma'danlarini o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Bu esa, biz konchilik sohasida mintaqada yetakchi ekanligimizni yana bir karra amalda isbotlayapti.

– Yirik, ta'bir joiz bo'lsa, respublika ahamiyatga molik loyiha va jamoaning o'tgan yili erishgan natijalari, 2025-yil uchun belgilangan rejalar va kadrlar tayyorlash haqida to'liqroq gapirib bersangiz.

– Mazkur loyihani hayotga tatbiq etish ishlari Chexiya davlatining "Mine Construction Alliance s.r.o." kompaniyasi bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Loyiha doirasida texnik jihatdan nihoyatda murakkab hisoblangan qazish ishlari olib borildi. Bugungi kunda shaxtaning chuqurligi ming metrga etdi. Ayni paytda so'nggi bosqichdagi ishlar davom ettirilmoqda. Loyihani 2025-yilning dastlabki oylarida to'liq yakunlash rejalashtirilgan. Bu, kelgusida er qaridan har yili 850 ming tonna ma'danni er yuzasigacha chiqarish va mos tarzda yangi ish o'rinlari ochilishiga imkon yaratadi. Ma'dan qayta ishlash uchun 4-qirdometallurgiya zavodiga etkazib beriladi.

2024-yil yakunlariga ko'ra rudani qayta ishlash rejasini 103,1 foizga, mahsulot ishlab chiqarish 103,4 foizga bajarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ta'mirlash-mexanika sexida 14 loyiha bo'yicha 52 turdagi kon-shaxta mexanizmlari uchun 7 milliard 134 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan edi. Amalda 7 milliard 210 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va yillik reja 101,1 foizga uddalandi, 2023-yilga nisbatan o'sish sur'ati 128,3 foizni tashkil etdi. Joriy yilda yangi turdagi kon-shaxta uskunalar uchun 12,1 milliard so'mlikdan ortiq ehtiyot qismlar-

ni o'zlashtirishni maqsad qilganmiz. Bu marra ham albatta zabt etiladi.

Kombinat tizimida tarmoq korxonalarini barqaror rivojlantirish va ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot hajmini oshirish bo'yicha birinchi darajali vazifalarni bajarishga qodir muhandis-texnik va ishchi kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Bu tizim Janubiy kon boshqarmasida ham izchil amal qilyapti. Yosh mutaxassislar va yuqori malakali xodimlarni tayyorlash boshqarmamizning O'quv markazida olib boriladi. Jamoalarni boshqarish zamonaviy va kreativ fikrlash, turli vaziyatlarda tezkorlik bilan qaror qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yoshlarga ishonib topshirilgan.

– Kon boshqarmasi korxonalarida olti ming nafarga yaqin turli kasb egalari mehnat qilishmoqda. Boshqarmada ishchi-xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

– Kon boshqarmamiz tizimidagi korxonalarida mehnat qilayotgan mutaxassislar va ishchi-xodimlarimiz, ularning oila a'zolari hamda mehnat faxriylarimizni ijtimoiy himoyalashga e'tibor qaratib kelmoqdamiz. Ularga imtiyozli tibbiy xizmat ko'rsatilmoqda, moddiy yordam, sanatoriy-kurortlarda davolanish uchun yo'llanmalar ajratilyapti. Umumxalq bayramlarida yolg'iz keksalar, urush va mehnat faxriylariga har tomonlama ijtimoiy yordam ko'rsatilishi odatiy holga aylangan. Ishchilar va ularning oila a'zolari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga e'tibor berilayotganligi bois sport majmualari doimo odamlar bilan gavjum.

Korxonalarimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning yurtimiz iqtisodiyotida o'rni beqiyosligini chuqur his etib, yangi yilning ilk kunlaridan o'z ish sur'atini tobora oshirayapmiz. Kon boshqarmamiz tizimidagi korxonalar va tashkilotlarda mehnat qilayotgan konchilarning kelgusidagi rejalarini ulug'. Jamoa ana shu rejalarini ro'yobga chiqarish yo'lida astoydil izlanaypti, mehnat qilyapti.

Bugun kombinatda amalga oshirilayotgan ulkan yaratuvchanlik va bunyodkorlik ishlari yurtimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligiga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu bunyodkorlik ishlarida biz, "janubliklar" ham kamarbasta ekanligimizdan faxrlanamiz.

Suhbatni M.HUSANOV yozib oldi.

Bugungi kunda jahonda oltin ishlab chiqarish bo'yicha yuqori pog'onalardan o'rin olgan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatida mehnat qilayotgan xodimlarning o'rtacha yoshi 37 yoshni tashkil etib, ishchi-xodimlarning o'rtadan bir qismi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Kombinatta faoliyat yuritayotgan oliy ma'lumotli yoshlarning 11 foizi rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsalar, 20 foizi turli darajadagi mutaxassislardir. Bu, hech shubhasiz, korxonada yoshlar katta kuch ekanligini, ertangi kun uchun munosib izdoshlar etishib kelayotganini ko'rsatib turibdi.

lohiyatlarini ro'yobga chiqarish, rahbar va yoshlar o'rtasida muloqotlarni yo'lga qo'yish, shuningdek, kambag'al oila farzandlarini o'qitib, ish bilan ta'minlash hamda kombinat rahbariyatiga birkirilgan mahallalardagi yoshlarning muammolarini hal etish kabi yo'nalishlar qamrab olindi.

So'nggi yo'nalish bo'yicha Navbahor kasb-hunar maktabida Navoiy mashinasozlik zavodi uchastkasi tashkil etilib, birinchi bosqichda kambag'al oilalarning 23 nafar farzandlari hamda uyushmagan yoshlar o'sha yerning o'zida ham nazariy, ham amaliy o'qimlarga o'qitilib,

da yuqori natijalarga erishgan faol yosh rahbarlar bir necha yildan buyon amalga oshirilayotgan "Bosh direktor tashakkurnomasi" loyihasida e'tirof etilmoqda. Yangi yil arafasida yoshlar yetakchilari Kengashi o'z oldiga an'ana shundan yosh rahbarlarning ota-onalari xonadoniga Bosh direktor tashakkurnomasi yetkazildi.

2025 – "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da ham NKMK yoshlar yetakchilari Kengashi o'z oldiga an'ana nanga aylangan "Orol taqdiri – kelajak avlod taqdiri" shiori ostida o'tkazilayotgan harakat doirasida Qoraqalpog'is-

NKMK: yoshlar katta va  
ishonchli kuch

Yurtimizda yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik, yaratilayotgan shart-sharoitlar, berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar har qachongidan yuqori darajaga ko'tarilgan. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgani va mamlakatimizda 30 iyun – Yoshlar kuni, 2024-yil – "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilingani ushbu yuksak e'tiborning yorqin ifodasidir. Zero, Yurtboshimizning "Yangi O'zbekistonda, albatta, yoshlar bilan birga quramiz" degan fikrlari amalda o'z isbotini topmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida yoshlarga oid davlat siyosati tizimli amalga oshirilmoqda. Bo'linmalardagi jamoatchilik asosida faoliyat yuritayotgan 92 nafar boshlang'ich tashkilot yetakchilari kombinat tomonidan har yili tasdiqlanadigan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturini yoshlar hayotiga tadqiq etishmoqda. 2024-yilda ushbu vazifalarni amalga oshirishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan faol boshlang'ich tashkilot

yetakchilardan Farrux Ashurov, Sanjar Temirov, Jahongir Ro'ziyev, Davlatjon Daminov, Zamana Jahashova, Baxtiyor Yodgorov, Dilafroz Sattorova, Nodirbek Tuyev, Xusniddin Bo'riyev, Farida Tangatarova, Nurbek Bekqulov, Javlon Eshbo'yev, Murodillo Hamroyev, Otabek Mavlonov, Doston Fayziyev, Umidjon Ziyodov, Sarvinov Axtamova, Sobirjon Kozimov, Alisher Bobomurodov, Suhrob Aliqulovlarni ta'kidlab o'tsam arziydi.

"Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" kombinat yoshlari hayotida alohida iz qoldirdi. Yil e'lon qilingach, ko'p vaqt o'tmay yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning 40 banddan iborat chora-tadbirlari dasturi tasdiqlanib, uni amalga oshirish uchun kombinat tomonidan zarur mablag'lar ajratildi. Dastur 8 ta yo'nalish bo'yicha tuzilib, unda yoshlar bilan ishlash samaradorligini, yosh xodimlarning yoshlarning kasbmahoratini oshirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ijodiy va intellektual sa-

ishga joylashtirildi. Undan tashqari, Navoiy viloyatidagi mahallalarda istiqomat qiluvchi, NKMK rahbariyatiga birkirilgan "og'ir" toifadagi yoshlar bilan ishlar olib borildi, ishsiz va migratsiyadan qaytgan yoshlarning bandligi ta'minlanib, moddiy yordam ko'rsatildi.

Yana bir narsani ta'kidlab o'tish joiz. O'tgan yili safimizga yana 1 ming 200 nafarga yaqin yoshlar qo'shildi va kombinatda faoliyat yuritayotgan yoshlar soni 11,2 ming nafarga yetdi. Ishga olingan yoshlarning 200 nafardan ortig'ini "O'talikka olingan", "Og'ir toifa", "Yoshlar daftaridagi yigit-qizlar tashkil etdi.

Yoshlar orasidan iqtidorlarini aniqlash, ularning iste'dodini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, bo'lajak rahbar va mutaxassislar zaxirasini shakllantirish, faol yosh rahbarlarni rag'batlantirish maqsadida an'anaga aylangan, jumladan, "Yilning eng yosh mutaxassisi", "Yilning eng yosh kasb egasi", "Yilning eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi", "Yilning eng yaxshi yoshlar yetakchisi" kabi tanlovlar o'tkazib kelinmoqda. Yil davomi-

ton Respublikasining Muynoq tumanida saksosul ekish aksiyasini davom ettirish, kombinat korxonalarida "yashil belbog'lar" yaratish hamda "Yashil makon" umummilliy loyihasida yoshlarning faol ishtirokini ta'minlashdek katta vazifalarni qo'ygan. Shuningdek, Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan "Kambag'alikdan-farovonlik sari" dasturi doirasida NKMK rahbariyatiga birkirilgan, Navoiy viloyatining 14 ta mahallasini obod qilish, kambag'al oilalarni kambag'allikdan chiqarishda ko'maklashish asosiy maqsadimiz bo'lib qoladi.

Muxtasar aytganda, davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarga bildirilgan ishonchni oqlash, yaratilgan keng shart-sharoitlardan unumli foydalanish, o'zligimizni anglab, salohiyatimizni dunyoga tanitish vaqti keldi. Biz, kombinat yoshlari sharafli burchimizni ado etish yo'lida yanada jipslashib, bor imkoniyatni ishga solamiz.

Sanjar RAJABOV,  
NKMK yoshlar yetakchilari  
Kengashi raisi.

Oliy ta'lim muassasamizda ilm-fan va ta'lim yutuqlari barobarida, talabalarimizning muvaffaqiyatli bilan hamohang kechgan ortda qolgan yilni tahlil qilarkanmiz, bu, rivojlanishning yangi yo'nalishlarini belgilash va yangi maqsadlarga erishishimizda muhim sanaladi. Aytish lozimki, 2024-yilda oliy ta'lim, xususan muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlaydigan universitetlar faoliyati tubdan takomillashdi. Faoliyatimizga xalqaro amaliyotda mavjud bir qator tajriba va amaliyotlar kirib keldiki, bu omillar aholini talab yuqori kasblarga o'qitish tizimini yaratishga hamda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga samarali xizmat qilmoqda. Ayni vaqtda universitetimizda 35 nafar fan doktorlari, 158 nafar falsafa doktorlari va fan nomzodlari faoliyat olib bo'rayapti va oliy ta'lim muassasamizning ilmiy salohiyati 60,1 foizni tashkil etmoqda.

Mamlakatimizning tobora o'sib borayotgan iqtisodiyotini zarur xomashyo resurslari bilan ta'minlashda konchilik, metallurgiya va geologiya kabi sohalar strategik ahamiyatga ega. Bu borada yaqin va uzoq istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Shundan kelib chiqib, tegishli sohalar bo'yicha olimlar tomonidan dolzarb tadqiqotlar amalga oshirilayapti.



miz Yevropaning nufuzli "Thermo Fisher Scientific" kompaniyasining "Apreo 2 S LoVac" markali skanerlovchi mikroskopidan samarali foydalanishmoqda. Yangi mikroskop namunalarini 2-3 million martagacha kattalashtirish imkonini beradi. Yangi uskuna nafaqat NKMK, balki konchilik va metallurgiya sohasi bilan bog'liq boshqa ishlab chiqaruvchilarning faoliyatidagi muammolar ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ham qo'l kelayapti. Bu unikal va kamyob qurilma "Scopus", "ScienceDirect", "Web of Science" va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasida indekslanuvchi jurnallarda maqola chiqarish imkoniyatini ham oshiradi.

Darhaqiqat, nafaqat foydali qazilmalar, balki boshqa qator yo'nalishlarda ham yurtimizning iqtisodiy potentsiali nihoyatda yuqori sanaladi. Shu bois, bugungi kunda universitetda malakali muhandis kadrlar qatorida iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi sohalarida ham mutaxassislar tayyorla-



maypti. Oliyog'ida 2024-yilda "dual ta'lim" tizimi mustahkam asosda yo'lga qo'yildi. 3- va 4- bosqich talabalarimiz "4+2" – 4 kun oliy ta'lim muassasasida, 2 kun ishlab chiqarish korxonalarida dars mashg'ulotlari o'tashdi. Bu qulaylik yosh mutaxassislarning nazariy bilimlarini amaliyotda samarali mustahkamlash imkonini beraypti. Universitet negizida "Mahalliyashtirish va innovatsion rivojlantirish markazi", "Mintaqaviy va korporativ strategiyalar" hamda "Sanoat ishlab chiqarishlarni mahalliyashtirish" kafedralari tashkil etilgani oliyog' faoliyatida yangi bosqich boshlanganini ko'rsatdi.

Yil davomida universitetda "GeoTech-2024: geotexnologiya, konchilik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish" hamda "Zarafshon vohasini kompleks innovatsion rivojlantirish: yutuqlar, muammolar va istiqbol" mavzularida xalqaro anjumanlar tashkil etilgani Navoiy

viloyati hududining ilmiy va iqtisodiy salohiyatini oshirishda zarur ahamiyat kasb etdi. Xalqaro hamkorlik borasida sezilarli ijobiy natijalarga erishib, dunyoning nufuzli universitetlari bilan 10 dan ortiq memorandumlar va qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha kelishuv bitimlarini imzoladik. Germaniyaning "Frayberg konchilik akademiyasi" texnika universiteti, Moskva davlat universiteti, Buyuk Britaniyaning Kembrij universiteti, Shimoliy Xitoy texnologiyalari universiteti shular jumlasidan.

Prezidentimiz o'tgan yil viloyatimizga tashrif kunlarida hudud mutasaddilari va olimlariga qator topshiriqlar berildi va ular oldiga vazifalar qo'yildi. Ana shu vazifalar ijrosi hamda 2025 yil – viloyatimizda "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilinganligi bugungi kunda amalga oshirayotgan sa'y-harakatlarimiz, ma'naviy va ijtimoiy hayotimizda aks etyapti.

stipendiyalari g'olibligiga erishgani barchamizni xushnud etdi.

Ilmiy, o'quv va amaliyot jarayonlari talabalarining ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, ixtirochilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ularning startap g'oyalari ustida ishlashga keng imkoniyat yaratmoqda. "Iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish uchun bizga yuqori malakali muhandis-texnologlar suv bilan havodek zarur", degan edi Yurtboshimiz chiqishlarining birida. Ayni paytda olimlarimiz, qolaversa texnika sohasi va zamonaviy texnologiyalarga qiziquvchi yoshlar uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlar negizida shunday yuksak maqsadlarga erishishning hayotiy ifodasi aks etyapti.

Baxtiyor MARDONOV,  
Navoiy davlat konchilik va  
texnologiyalar universiteti  
rektor, professor.

VAZIFALAR ULKAN,  
MAQSADLAR YUKSAK



■ Dolzarb mavzu

# KOMBINAT KORXONALARINING ELEKTR TA'MINOTIDA UZILISHLAR BO'LMAYDI

## Endilikda "Zaxirani avtomatik tezkor ulash" qurilmasining qo'llanilganligi shunga imkon yaratadi

Ma'lumki, Navoiy-kon metallurgiya kombinati respublikamizda eng katta elektr energiya iste'molchisidir. 2008-yildan buyon o'tgan davrda ulkan korxonada gidrometallurgiya korxonalarini soni uchtdan yettitaga etib, elektr energiyasi iste'moli ikki baravarga oshdi. Buni raqamlarda ifodalaydigan bo'lsak, 600 megavattni tashkil etmoqda.



Darvoqe, so'nggi davrda kombinat rahbariyati boshchiligidagi yangi 4, 5, 6, 7-gidrometallurgiya zavodlari barpo etildi, 2, 3, 7-GMZlarining ma'dani qayta ishlash va mahsulot ishlab chiqarish quvvatlari oshirildi. Eng zamonaviy tegirmonlarni ishlab chiqarish va ta'mirlash mahalliyashtirilib, bu ishlar o'z korxonalarimizda bajarilmoqda. Bundan kombinatda mehnat qilayotgan har bir inson, u qaysi kasb egasi ekanligidan qat'iy nazar, behad faxrlanadi. Yurtimiz ravnaqi va xalqimizning turmush farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarida kombinat energetiklarining ham ulushi borligi biz, soha mutaxassislari hamda ishchi-xizmatchilariga alohida quvonch, g'urur bag'ishlaydi. Maqsadimiz – kombinat ravnaqiga qo'shayotgan hissamizni oshirishdir.

Tarmoqlar va podstansiyalar sexining 170 nafar kishidan iborat ahlil jamoasi kombinat bo'limlariga elektr bilan bog'liq avariya holatlarida texnik va amaliy yordam ko'rsatish, yangi podstansiyalarni qurish, montaj va sozlash ishlarini bajarib kelmogda. O'tgan 2024-yilda sexda bo'limlarning yaroqsiz holga kelgan 65 ta transformatori ta'mirlandi. Asosiy faoliyatdan tashqari YaKNO – tashqarida yakka turuvchi karyer yacheykasi, KTPN – tashqarida o'rnatiladigan kompleks transformator punkti va elektromagnit separatorlarni ta'mirlash boshlandi. Kombinatda elektr energiyasidan foydalanish quvvat ko'rsatkichini darajasi cosF 0,98 ga yetkazilganligi sex jamoasi professional darajasi hamda fidokorona

mehnatining natijasidir. Respublikamizning barcha viloyatlarida elektr energiyasi isrofi 10 foizdan 30 foizgacha bo'lgan bir paytda Navoiy konmetallurgiya kombinatida bu ko'rsatkichning 2 foizdan oshmayotganligiga erishayotganligimizni ta'kidlash o'rinni bo'ladi. Jamoamiz shuningdek, "NKMK jamg'armasi" davlat muassasasining ijtimoiy obyektlariga, bosh podstansiya, 30 ta transformator punktlari, 30 kilometr ga yaqin kabel va liniyalarga xizmat ko'rsatib kelmogda.

Tarmoqlar va podstansiyalar sexi jamoasining 2024-yilgi mehnat faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida so'z borarkan, kombinatda mamlakatimizda halli joriy etilmagan, iste'molchilarni uzluksiz va sifatli elektr energiyasi bilan ta'minlaydigan "Zaxirani avtomatik tezkor ulash" qurilmasining muvaffaqiyatli qo'llanilganligiga alohida to'xtalmoqchiman. Ushbu qurilma "Qizilqum" kon boshqarmasining 1-gidrometallurgiya zavodida va Janubiy kon boshqarmasining 4-gidrometallurgiya zavodida o'rnatilib, yil yakunida, dekabr oyida ishga tushirildi va ushbu zavodlarni ta'minlab turuvchi 110 kilovolt havo elektr uzatish liniyalari birortasi avariya yo'q chiqanda, korxonaning shu liniyalardan ta'minlangan qismi o'chmasdan, texnologik jarayonlarni buzmasdan ishda qolishini ta'minlab beruvchi natija ko'rsatdi. Liniyalarning birortasi o'chishi zavodning qisman to'xtashi, qayta qo'shishda elektr energiya isrofi, tegirmon va kompressorlarning stator toki oshishi, oqibatda ularning tez ishdan chiqishiga va texnologik jara-

yonlarni qaytadan tayyorlash kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish maqsadida 1 va 4-GMZda "Zaxirani avtomatik tezkor ulash" qurilmasi eksperiment sifatida ishga tushirildi. Endilikda tashqi elektr ta'minotida uzilishlar ro'y bergan, ya'ni, ta'minlovchi liniyaning birortasi avariya yo'q chiqan holatlarda mazkur qurilma ikkinchi ta'minlovchi liniyaga 56-58 millisekund vaqt oralig'ida o'tilishi va zavod texnologik jarayonlari to'xtamasligini ta'minlaydi.

Seximizning markaziy elektrotexnika laboratoriyasi boshlig'i L.Po'latov, guruh rahbarlari S.Qosimov, D.Fayziyev, muhandislari X.Isroilov, A.Degtyarov, O.Maxmatqulov, B.Normo'minov, Sh.Norqulov, F.G'ulomov, Sh.Muxammadiyev, M.O'sarov, O.Bozorboyev, A.Sanaqulov, X.Qobilov, A.Mixaylovlar "Mexanotronika" ilmiy-texnik markazida ishlab chiqarilgan mikroprosessor qurilmasining elektr ulanish sxemalarini ishlab chiqib, maxsus shkafda montaj va sozlash ishlarini bajardilar. Zavodni ta'minlovchi 6 kilovolti asosiy o'chirgichlari "Tavrida elektrik" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan o'ta tez ishlovchi zamonaviy vakuumli o'chirgichlarga almashtirildi. Bu qurilmani montaj va sozlash ishlarida "Qizilqum" kon boshqarmasi bosh energetigi B.Atabayev, bosh energetik o'rinbosari X.Shakarov, 4-GMZ bosh energetigi D.Hakimov, elektr ta'mir uchastkasi boshlig'i B.Yangiboyevlarning yordami katta bo'ldi.

Qurilma zamonaviy mikroprosessorli bo'lganligi, elektr ta'minoti tizimidagi avariya holatlar murakkabliklari, texnologik jarayonlarning har qanday tebranishlarga mone'ligi mutaxassislardan bilim, tajriba, professionalizmi talab qiladi. Sozlash ishlarini zamonaviy va murakkab bo'lgan qurilmalarda amalga oshirilganligi mutaxassislarimizning mahorati, bunday qurilmalarni mohirona ishlata bilish qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Masalaning murakkab jihatlaridan yana biri – bunday avtomatik qurilma elektr energiya ta'minoti tizimiga yangidan kirib kelayotgan bo'lib, uning analoglari hali mamlakatimizda tatbiq qilinmagan. Shu boisdan faqat o'zimizning tekshirish natijalarimizga tayanib, qurilmani ishlab chiqarishga tatbiq qilishimizga to'g'ri keldi. Korxonalarni elektr energiya bilan uzluksiz ta'minlashning yana bir samarali usuli tatbiq qilindi, kelajakda kombinatimizning barcha obyektlarida ushbu avtomatika vositasini qo'llanish imkoniyatiga ega bo'lindi.

Kombinatimiz jamoasi oldiga oltin ishlab chiqarish hajmini oshira borish, yangi innovatsion g'oya va ishlanmalarni qo'llanish, energiya sarfini kamaytirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirishga erishish vazifasi qo'yilmogda. Tarmoqlar va podstansiyalar sexi jamoasi ham ana shunday ezzu maqsad yo'lida doimo izlanadi va iqtisodiy jihatdan foydalil yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etaveradi.

**Qahramon XASANOV,**  
"NKMK" AJ Tarmoqlar va podstansiyalar  
sexi boshlig'i.

Xavfsizlik sohasida ishlab chiqarish murakkab faoliyat hisoblanib, xodimlardan maxsus bilim, yuqori kasbiy mahorat, tajribaga ega bo'lishni, katta jamoada ishlab chiqarish ko'nikmalarini talab etadi. Ishlab chiqarish ob'ektlarida qo'llaniladigan texnika qurilmalarining ishdan chiqishi yoki shikastlanishi, texnologiya jarayoni rejimidan chetga chiqish sanoat xavfsizligi sohasidagi qonun, shuningdek, normativ texnik hujjatlarda ko'rsatilgan talablarning buzilishi oqibatida kelib chiqadi. "NKMK" aksiyadorlik jamiyatida shunday hodisalarning oldini olish, ularni nazorat qilish maqsadida tashkil etilgan ishlab chiqarish nazorati bo'limi boshlig'i Tolibjon Kamolovdan bo'lim faoliyati haqida so'zlab berishni so'radik.

## ISHLAB CHIQRISH NAZORATI – XAVFSIZLIK GAROVIDIR



– Sanoatimizga yangidan-yangi texnika va texnologiyalar kirib kelmogda. Bu texnologiyalar, qurilmalar, uskunalar, bino va inshootlardan xavfsiz foydalanish, atrof-muhitga zarar yetishi, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan noxush hodisa va avariyaalarning oldini olish ishlab chiqarish obyektlarida ishlab chiqarish xavfsizligi ta'minlashni taqozo etadi.

Respublikamizda O'zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida" qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunning asosiy maqsadi xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, qonun talablariga asosan aksiyadorlik jamiyatimizda xavfli ishlab chiqarish obyektlarining mavjud korxonalar xavfli ishlab chiqarish obyektlari sifatida davlat reyestriga kiritilib, korxonalarda ishlab chiqarish xavfsizligi ta'minlashni taqozo etadi.

Hozirgi kunda korxonamizda 117 ta xavfli ishlab chiqarish obyektlari mavjud bo'lib, ularda 57 mingdan ortiq ishchi-xodimlar mehnat qilishadi. Gidrometallurgiya korxonalarini ishchi-xodimlari odam organizmiga kuchli ta'sir etuvchi, zaharli, yengil alanganaluvchi va yonuvchi moddalar bilan bog'liq ishlab chiqarishda. Kon-ruda qazib oluvchi korxonalarda esa portlovchi moddalar bilan bog'liq ishlab chiqarishda oshirishadi. Xavfli moddalar bilan ishlaganda albatta, har bir moddaning xususiyatidan kelib chiqib, xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya etgan holda faoliyat olib borilishi zarur.

Xavfli moddalar bilan sodir bo'ladigan avariya yoki noxush hodisalar korxonada atrofidagi aholi yashash punktlari va aholiga zarar yetkazish ehtimoli ham mavjuddir. Shu nuqtai-nazardan bo-

limimiz xodimlari va "NKMK" AJ tarkibiy bo'limlaridagi mutaxassislar xavfli ishlab chiqarish obyektlarida ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlashni taqozo etadi.

"NKMK" AJning ishlab chiqarish nazorati bo'limining asosiy vazifasi tarkibiy bo'limlardagi xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi talablari bajarilishi, inshootlar va texnika qurilmalarining tegishli ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etish va tahlil qilish, atro-fmuhitga zarar yetkazilishining oldini olish va sanoat xavfsizligi holatini yaxshilashga yo'naltirilgan choratadbirlarni ishlab chiqarishdan iborat. Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazorati kombinat bo'limlarida ham tashkil etilgan. Ayni paytda "NKMK" aksiyadorlik jamiyatida sanoat xavfsizligi sohasida yetarli bilim va tajribaga ega mutaxassislar faoliyat olib bormogdalar. Markaziy kon boshqarmasi muhandisi G'olib Xotamov, Janubiy kon boshqarmasi muhandisi Shuhrat Xolmurodov, "Qizilqum" kon boshqarmasi ishlab chiqarish nazorati xizmati boshlig'i Akmal Tursunovlar shular jumlasidandir.

Bo'limimiz jamoasining maqsadi kombinatning barcha xavfli ishlab chiqarish obyektlarida ishchi-xodimlar xavfsiz ishlashi, noxush hodisa, avariya yuz bermasligini kafolatlash, korxonamiz ravnaqi va rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishdir. Zero, har bir korxonada ishlab chiqarish nazoratining to'g'ri yo'lga qo'yilishi ishchi-xodimlar xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**A.AXMEDOVA**  
suhbatlashdi.

■ Ratsionalizatorlik harakati

# DOIMO IZLANIB YASHASH KERAK

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ishlab chiqarish faoliyatiga doir texnik yechimlarga yoshlarni keng jalb etish, yangicha uslublar qo'llashni rag'batlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, resurslar va mablag'lardan tejankorlik bilan foydalanish evaziga iqtisodiy samaradorlikka erishish borasida qator ishlar amalga oshirilmayotir.

Kombinatda izlanuvchan, ixtirochi ratsionalizator yoshlar soni yildan-yilga ortib bormogda. Korxonaning ko'plab yoshlari geologiya, konchilik ishi, mexanika, energetika, transport, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish sohasi va boshqa yo'nalishlarda yangilik yaratib, iqtidorlarini namoyon etib, tengdoshlariga o'rnatilgan kelishmayapti. Ularning ixtirolari va ratsionalizatorlik takliflari ishlab chiqarishga tatbiq etilayapti va yaxshi samara berayapti. Aslida kombinatning kadrlar siyosatidagi asosiy vazifalaridan biri ham yangicha fikrlaydigan va ishlaydigan muhandis kadrlarni kamolga etkazishdir.



2013-2023-yillarda kombinat mutaxassislari 37 ta ixtiro uchun O'zbekiston, Rossiya, Ukraina, Germaniya va Shveysariya davlatlari patentlarini qo'lga kiritdi. Bugungi kunda uning 16 tasi ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilmogda, 12 tasi bo'yicha esa ish olib borilmogda. 10 yilda yaratilgan ixtirolardan olingan iqtisodiy samaradorlik 1 trillion 244 milliard so'mdan oshdi. 2018-yilda 97 ta, 2019-yilda 113 ta, 2020-yilda 173 ta, 2021-yilda 187 ta, 2022-yilda 234 ta, 2023-yilda 243 ta ratsionalizatorlik taklifi ishlab chiqilib, ular to'liq ishlab chiqarishga joriy etildi. Va bu takliflardan kombinat 2018-2023-yillarda 555,2 milliard so'mlik iqtisodiy samaradorlikka erishdi.

Ishlab chiqarish va uning samaradorligini oshirishda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish hamda ishlab chiqarishni texnik jihatdan kengaytirish va takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarish istiqbolini zamonaviy temir yo'l transportisiz tasavvur etish qiyin. Temir yo'l transporti ham yuklarni, ham yo'lovchilarni tashishning qulay vositasi.



sidir. Zero, zarur mahsulot, xomashyo, ehtiyot qismlar, yoqilg'i materiallari va boshqa turli xil mahsulotlar muntazam tashilgandagina korxonalarimiz uzluksiz ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Bunda ishchi-xizmatchilarning o'z vaqtida ish joylariga yetkazilishini ham e'tibordagi tutish lozim.

**Markaziy kon boshqarmasi Temir yo'l transporti boshqarmasi muhandis-konstruktor Uchqun Boynazarov:**

– Qobiliyatsiz inson bo'lmaydi. Inson dunyoga kelibdiki, nimadir kashf qilish, nimalarnidir yaratishga intiladi. Korxonamizda yosh ratsionalizator, ixtirochi ishchi-xodimlar "qanday qilsak, sama-

radorlikka erishamiz, avvalgisidan qulayroq bo'lishi uchun nima qilsak bo'larkan?" deya doimo izlanishadi. Balki, shuning uchundir hayotimizda rang-baranglik bisyor. Ixtirochi va ratsionalizator yoshlarni rag'batlantirish maqsadida "Eng yaxshi ixtirochi", "Eng yaxshi yosh ratsionalizator", "Eng yaxshi innovatsion g'oya va ratsionalizatorlik taklifi" ko'rik-talovlari, shuningdek, barcha bo'limlarida yosh ratsionalizatorlar klublari, sex, zavod, kon va shaxtalarda to'garaklar tashkil etilganligi ayni muddao bo'layapti.

Temir yo'l transporti boshqarmasiga qarashli yuk va yo'lovchi tashish vagonlari yil mobaynida reja asosida bosh-

qarmaning "Zarafshon" ishlab chiqarish maydoni vagon deposida kapital va joriy ta'mirlanadi. Ta'mirlash jarayonida har bir vagon alohida ehtiyot qismlariga ajratiladi. Vagonlarning g'ildirak juftliklari zamonaviy va avtomatlashtirilgan g'ildirak yo'nuvchi-1836M10 rusumli dastgohda me'yoriy standartlar asosida ta'mirlanadi. G'ildirak juftliklari dastgohga o'rnatiladi va undan olish yuk ko'taruvchi kranlar, po'lat arqon (strop)lar yordamida amalga oshiriladi. Ish jarayonida po'lat arqonlardan foydalanganda simlarining uzilishi va siljishi, buralib ketishi kabi holatlar kuzatiladi. Nosoz po'lat arqonlardan ishlab chiqarishda foydalanish qat'iy qat'iy taqzilgan. Korxonamiz uchun yiliga 40-48 dona yangi po'lat arqonlar sotib olinardi. Biz yuk va yo'lovchi tashish vagonlarining g'ildirak juftliklarini sex va shaxl ichida transportirovka qilish, g'ildirak yo'nuvchi dastgohga o'rnatish va undan olish ishlarini bajarishning samarali usulini o'ylab topdik. Bu ishlarini travers moslamasi orqali amalga oshirish taklifi berdik. Ushbu taklifga asosan travers moslamasining loyihalashtirish va ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash maqsadida Zarafshon ta'mirlash mexanika zavodida tayyorlandi. Bu moslamaning yuk ko'tarish quvvati, mustahkamligi soha mutaxassislari tomonidan amaliyotda sinab ko'rilib, foydalanishga topshirildi. Endilikda travers moslamasi yordamida vagonlarning og'ir bo'lgan katta hajmdagi ehtiyot

qismlari va detallari onsonlikka almash-tiriladi. Bu esa iqtisodiy samara berishdan tashqari ish sifati, vaqtning tejalishiga olib keladi hamda ishchi-xodimlarga qulayliklar yaratayapti.

**Markaziy kon boshqarmasi Temir yo'l transporti boshqarmasi muhandis-mexanigi Alisher Sapayev:**

– Ushbu ratsionalizatorlik taklifiga muvofiq yaratilgan moslama g'ildirak juftliklarini ta'mirlash va transportirovka qilish jarayonida yuk ko'tarish ishlarini xavfsiz amalga oshirishga xizmat qilayapti. Bugungi kunda vagon xizmati bo'limimizda travers moslamasidan foydalanish eng qulay usul hisoblanib, ish unumdorligini oshirishga hamda korxonamiz mablag'lari-ni iqtisod qilinishiga imkon bermogda. Travers moslamasi ishlab chiqarishga joriy etilishidan oldin yiliga 48 dona po'lat arqonlardan foydalanilgan. Mazkur arqonlarning bir donasi 249,5 ming so'mdir. Bu, bir yilda qariyb 12 million so'mni tashkil qiladi. Bir dona travers moslamasi kamida 20 yil muddatga xizmat qilishini hisobga olsak, bu muddatda 239,6 million so'm evaziga 960 dona po'lat arqonlar sotib olingan bo'lardi. Demak, 20 yil uchun iqtisodiy samaradorlik – 239,6 million so'mni tashkil etadi. Bunda so'mning yillik inflyatsiya darajasi, po'lat arqonlarning narxi yiliga ko'tarilishi hisobga olinmagan. Bu, birgina Markaziy kon boshqarmasining Temir yo'l transporti boshqarmasi vagon deposi kesimida amalga oshirilgan ish. Agar bu ratsionalizatorlik taklifi kombinat tizimidagi barcha temir yo'l transporti sohasida qo'llanilsa, ish jarayonidagi qulaylik, iqtisodiy samaradorlik yanada ortadi.

**Dildora KARIMOVA** tayyorladi.



■ Sarhisob

# SPORT SOHASIDAGI YUTUQLARIMIZ

**Sport insonlarni jismonan va ma'nan kuchli, baquvvat va sog'lom bo'lishiga yordam beradi. Shu boisdan aholi, xususan yoshlar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va jismoniy tarbiyani keng targ'ib qilish, bolalar sportini rivojlantirish mamlakatimizda har tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazish yo'lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning ustuvor yo'nalishini tashkil etmoqda.**

Insonlar Navoiy-kon metallurgiya kombinatining eng katta boyligidir. Korxonada ishchi-xodimlarning sport bilan muntazam shug'ullanishlari, sog'liklarini mustahkamlashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Kombinativ tasarrufida Navoiy shahrida "So'g'diyona" jismoniy tarbiya va sport klubi, Zarafshon shahrida "Alpomish" sport majmuasi, Uchquduq shahrida "Lochin" sport majmuasi, Zafarobod shahrida "Yoshlik" madaniyat va sport majmuasi, Zarafshon qo'rg'onida "Konchi" madaniyat va sport majmuasi, Marjonbuloq qo'rg'onida "Marjonbuloq" sport majmuasi faoliyat ko'rsatyapti. Bugungi kunda ularda 90 nafardan ziyod murabbiy-ustozlar va sport bo'yicha yo'riqchi-uslubchilar 70 ga yaqin sport to'garaklarida ish olib borishyapti. 5 ta hududda NKMKning 3 ming 500 nafarga yaqin ishchi-xodimlari va qariyb 3 ming nafar bolalar va o'smirlar sport bilan muntazam ravishda shug'ullanishmoqda.

O'tgan yili kombinat sportchilari xalqaro, respublika, viloyat musobaqalarida ishtirok etishib, mingga yaqin sovrinli o'rinlarni egallashdi. "So'g'diyona" JTSKdagi sport saroyi, gandbol zali, o'yingoh, "Delfin" suzish havzasi va kichik futbol maydonlarida 19 ta sport turlarida 850 nafar ishchi-xodimlar sog'lomlashtiriladi va 1 ming 500 nafarga yaqin bolalar sport bilan shug'ullanishadi. Sentabr oyida Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida qilichbozlik bo'yicha bo'lib o'tgan Osiyo kubogi bosqichida O'zbekiston terma jamoasi tarkibida ishtirok etgan "So'g'diyona" jismoniy tarbiya va sport majmuasi sportchisi Alina Xalilova oltin medalni ko'lgaga kiritdi. Tojikiston Respublikasi poytaxti Dushanbe shahrida suzish sport turi bo'yicha o'tkazilgan VI xalqaro musobaqada "Oltin suv" Navoiy suzish markazi tarbiyalanuvchisi Sitora Odilova bras usulida 50 metr masofada faxrli 3-o'rinni, 4x100 masofada erkin usulda 2-o'rinni egalladi sport ustasi normativini bajardi.

10-11-oktabr kunlari Toshkent shahrida badiiy gimnastika bo'yicha "Yangi O'zbekiston" turniri bo'lib o'tdi "So'g'diyona" JTSK tarbiyalanuvchisi Sevinch Mo'minova halqa va tasma bilan yakkalik bahslarda faxrli 2-o'rinni egalladi.

25-30-noyabr kunlari Toshkent shahrida suzish sport turi bo'yicha 16, 18 va undan katta yosh toifasidagi sportchilar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston kubogi musobaqasida "Oltin suv" Navoiy suzish markazi jamoasi 9 ta oltin, 8 ta kumush va 12 ta bronza medallari sohibi bo'ldi. Vatanimiz poytaxtida Para suzish bo'yicha yoshlar va kattalar o'rtasida bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida Jismoniy tarbiya va sport klubi murabbiysi M.Sagdullaevning shogirdlari Shoxrux Arginov birinchi, Quadrat Nurullaev ikkinchi o'rinni egalladi.

Namangan shahridagi "Pahlavon" sport majmuasida sportning badiiy gimnastika turi bo'yicha kattalar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston kubogi bellashuvlarida Sevinch Mo'minova sport ustalari o'rtasida ko'pkurashda 2-o'rinni, halqa bilan bo'lgan bahslarda 1-o'rinni qo'lgaga kiritishga muvaffaq bo'ldi. 11-oktabr – "Xalqaro qizlar kuni"

■ Медицина

## ПОЧЕМУ ВНЕЗАПНО НАЧИНАЕТ СИЛЬНО БИТЬСЯ СЕРДЦЕ?

Увеличение частоты сердечных сокращений может быть обусловлено стрессом, тревогой, повышенной физической нагрузкой, приёмом определенных лекарств, развитием некоторых заболеваний. Лишь в редких случаях, учащенное сердцебиение может указывать на проблемы с сердцем-например, аритмию.

Тахикардия-учащенное сердцебиение, нарушение сердечного ритма, когда частота сердечных сокращений (ЧСС) в минуту превышает 90 ударов. Нормальная частота пульса колеблется от 60 до 90. Среднее значение может меняться в зависимости от возраста.

Что делать во время приступа тахикардии?  
-освободить грудную клетку и шею, расстегнуть пуговицы, ослабить воротник, снять галстук;  
-подложить под шею подушку;  
-обеспечить приток свежего воздуха;  
-выпить стакан холодной воды мелкими глотками.  
Как снизить пульс при нормальном давлении в домашних условиях?  
-держаться подальше от жары;  
-регулярно выполнять упражнения;  
-добавить больше рыбы в рацион;  
-уменьшить стресс, чем выше уровень стресса, тем больше высокий пульс;

-внимательно относиться к своему здоровью;  
-отказ от курения также помогает снизить пульс.  
Как лечить тахикардию народными средствами?  
Тахикардию можно вылечить при помощи настоя боярышника, валерианы или успокоительного чая, что благотворным образом отразится на сердечном ритме. Для чая можно смешать валериану, боярышник, пустырник, арнику горную, таволгу, липу. Нужно взять всего лишь одну столовую ложку растений и залить стаканом кипятка. Что делать, если сердце сильно бьётся?  
Учащенное сердцебиение-ощущение что сердце бьётся слишком часто или сильно стучит-это повод обратиться к врачу.  
Сердцебиение - это жалоба пациентов на субъективное ощущение учащенного, аритмичного или тяжелого сердцебиения.  
Как успокоить сердцебиение?  
В частности, оно может влиять на частоту сердечных сокращений. Чтобы успокоить сердцебиение, надо глубоко вдохнуть, на несколько секунд задержать дыхание и медленно выдохнуть, повторить 3-4 раза. Чем дольше задержать дыхание, тем больше шансов, что вагус замедлит сердцебиение.

**Б. УТЕМУРАТОВА,**  
цеховой терапевт взрослой поликлиники  
МСО ГУ «Фонд НГМК».

■ Bugunning gapi

Bugungi hayotimizni internet va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaymiz, internet yoki uyali aloqa telefoni bo'lmagan xonadonni uchratish qiyin. To'g'ri, bunday simsiz aloqa vositalari barchamizga juda katta qulaylik yaratadi. Dunyoning xohlagan chekkasidagi odam bilan suhbat, so'nggi yangilik, qiziqarli axborotlar, pul o'tkazmalari orqali mushkulimizni oson qiladigan bu ijtimoiy tarmoqlarning salbiy jihatlarini ham talaygina.

# BOLALARIMIZ TARBIYASI – BOSH VAZIFAMIZ

va ularni internetning salbiy ta'siridan asraylik

AQSH va Yevropa olimlari tahliliga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kattalardan ko'ra bolalar va o'smirlar orasida keng tarqalgan. Hozirgi bolalar butunlay boshqa bir dunyoda o'smoqda. Mutaxassislar bolalarning ijtimoiy tarmoqlarda doimiy aloqada bo'lishni istashi ular hali tayyor bo'lmagan emotsional stresslarni yengib o'tolmasligi va bu holat salbiy oqibatlariga olib kelishini ta'kidlamog'qalar. Zamonaviy bolalar kompyuter o'yinlari olami hamda ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o'sib, ulg'aymoqda. Bu, quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Bolalar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa kiradilar. Bolalar va o'smirlar internet tarmog'ida ularga umuman kirish mumkin bo'lmagan saytlarga duch kelishlari mumkin. Tabiiyki, bunday axborotlar qiziquvchan bola va o'smirni o'ziga ko'proq jalb etadi. Biroq harakatni amalga oshirishda bolalarga qanchalik ruxsat etilmasa, ularda bunga shunchalik yuqori darajada qiziqish uyg'unlashi barchaga ma'lum. O'smirlar tarmoqdagi nosog'lom turmush tarzidan axborot beruvchi ayrim manbalarga duch kelsalar, yanada qiziqib, mazkur axborotlarga alohida e'tibor qaratishlari ehtimoldan xoli emas. Shu sababdan kattalar farzand tug'ilgan kundan boshlab ularning ongiga issiq choynak, qozonlarga yaqinlashish, pichoq, qaychi kabi o'tkir uchli narsalarga tegish mumkin emasligini singdirganlari kabi, tarmoqdagi axborotlar ham xavfli ekanligini tushuntirishlari, bolalarda axborotlardan to'g'ri foydalanish salohiyatini shakllantirishlari zarur. Albatta, internet tarmog'i manbalari o'smirlarning bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan ayrim jihatlarga ko'ra ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli ta'sir ko'rsatishi ham mumkinligini unutmasligimiz zarur. Bolani internetda muloqot qilishga o'rganib borishida, ularga tarmoqda o'z shaxsiy ma'lumotlari, uy telefoni raqami, manzili, shuningdek, ota-ona va yaqinlarining shaxsiy ma'lumotlarini berish mumkin emasligini tushuntirish zarur.

Virtual "do'stlari" orasida yomon niyatli kimsalarga duch kelish xavfi va ular bilan hayotda uchrashishlari, ishonuvchan odatlariga ko'ra begonalar bilan dildan suhbatlashishlari xavfli alohida ta'kidlash zarur.

Pedagogik nuqtai-nazardan, tarmoq quyidagi xavfli ta'sirlarga ega:

zamonamizning salbiy ta'siriga ega yomon illatlar qatorida internet tarmog'iga bog'lanib qolish;

o'qish va bilim olishga yengiltaklik bilan munosabatda bo'lish. Internetdan tayyor dars ishlanmalari, matematik masalalar yechimlarini osongina topish hisobiga dars topshiriqlarini mustaqil bajarmaslik;

jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir xavfi, ya'ni bolaning faol harakatda bo'lmay, uzoq vaqt monitor ro'parasida o'tirishiga to'g'ri kelishi va boshqalar.

Mazkur xavflarning oldini olish maqsadida quyidagi tavsiyalarga e'tibor qaratish zarur: farzandingiz tarmoqdan foydalanmoqchi bo'lganida uni nazoratdan chetda qoldirmang;

farzandingiz ongiga yuqorida sanab o'tilgan xavfli jihatlardan himoyalani odatlarini singdirib boring;

farzandingizning tarmoqqa birinchi qadamlaridanoq internetda faqatgina yaxshi emas, balki umuman axborotlarni ham uchratishi mumkinligini tushuntirishingiz kerak;

farzandingiz tarmoqqa kirishda ro'yxatdan o'tish qoidalarini, ya'ni shaxsiy ma'lumotlarni berish mumkin emasligini bilishi lozim;

har kuni farzandimiz muloqotlarini kuzatib borishni o'zimizga odat qilaylik;

farzandingiz va o'zingizning kompyuter savodxonligingizni muntazam rivojlantirib boring. O'z bilimlaringiz bilan o'rtoqlashing. Internet xavfsizligi hamda farzandlarimiz tarbiyasi siz-u bizning bu boradagi bilim va malakamizga ham bog'liq ekanligini unutmaylik.

**Qumriya HOMIDOVA,**  
Konimex tumanidagi 16-umumiy  
o'rta ta'lim maktabi tarbiya fani o'qituvchisi.

■ Bilib qo'rgan yaxshi

# TO'G'RI OVQATLANISH – SALOMATLIK GAROVI

**Kuz-qish mavsumida aksariyat insonlarni aynan immunitetni ko'tarish masalasi ko'p o'yantiradi.**

Immunitetni ko'tarishda tabiiy mahsulotlar kuchliroqmi yoki dori-darmon vositalari? Insonda immunitet tushib ketish alomatlar qanday? "Immunitet tushib ketishi" degan tushuncha umuman noto'g'ri. Chunki tug'ma immun tanqis holatlarni (ular 3-5 foiz uchraydi) inobatga olmasak, har bir organizm uchun immunitetni faollik darajasi hozirgi vaqtda kerakli darajada bo'ladi. Bizning asosiy vazifamiz o'zimizning organizmiga imkon qadar sharoitlar yaratib berishdir. Bu degani: to'g'ri ovqatlanish, optimal miqdorda jismoniy faollikni bajarish va asosiy ruhiy muvozanatga ega bo'lishdir. Tez-tez shamollab turishimiz, bitta kasallikdan ikkinchisiga chalinish aynan yuqorida aytilgan sharoitlar bajarilmayotganligidan dalolat beradi.

Ovqatlanish sog'lom turmush tarzining asosi bo'lib, hayot sifatini belgilaydi. Ammo bu degani, turli noyob yoki juda qimmat mahsulotlardan foydalanish kerak, degani emas.

Rasionga ba'zi oziq-ovqat mahsulotlarini kiritish haqiqatan ham inson immunitetini mustahkamlashga yordam beradi. Buning uchun antioksidantlar, vitaminlar va mikroelementlarga boy odyiy oziq-ovqatlar juda mos keladi. Yashash joyingizda yoki yaqinida o'sadigan mevalar, sabzavotlarning har kungi ratsioningizda mavjudligiga e'tibor berishingiz kerak. Chunki oqilona ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, yomon odatlardan voz kechish salomatlik va kuchli immunitetning kalitidir.

Kerakli va foydali mahsulotlar



ro'yxati:

Qora shokolad – qora shokolad immunitet tizimini mustahkamlashga yordam beradi, ammo uni me'yorida iste'mol qilish tavsiya etiladi. Chunki bu juda yuqori kaloriyalik mahsulotdir. Qora shokolad tarkibida teobromin mavjud. Ushbu antioksidant organizm hujayralarini patogenlar bilan aloqa qiladigan erkin radikallardan himoya qiladi.

**Kurkuma** – ziravorlarning foydasi qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan. Kurkuma tarkibiga kirgan kurkumin tufayli immunitet reaktivitasini faollashtirishga yordam beradi. Modda antioksidant va yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega.

**Baliq** – bu oziq-ovqatda Omega - 3 va D vitamini immunitet reaktivitasini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turli baliqlar go'shtida yuqorida aytilgan moddalardan tashqari yana boshqa foydali nutrientalar bo'ladi. Baliq mahsulotlarini iste'mol qilish miya to'qimasining faol rivojlanishiga yordam berish bilan bir qatorda autoimmun kasalliklarning rivojlanishiga to'sinlik qiladi.

**Karam** – bu mahsulot tarkibida turli vitaminlar borligi bilan mashhur. Oq karam va brokkoli tarkibida S vitamini konsentratsiyasi ayniqcha yuqori. S vitamini shamollash alomatlarining davomiyiligini pasay-

tiradi, nafas olish kasalliklaridan keyin tiklanish davrini qisqartiradi. Undan tashqari karam tarkibida sulfurafan kabi antioksidantlar ham mavjud. Shok muzlatishdan foydalananda mahsulotlar foydali fazilatlarni yo'qotmaydi va tabiiylardan kam emas.

Sabzi va qovoq – to'q sariq rangli sabzavot va mevalarning tarkibi beta-karotinni o'z ichiga oladi, bu mevalarga yorqin rang beradi. Beta-karotin A vitaminining manbai bo'lib, terining sog'lom bo'lishiga yordam beradi, uni ultrabinafsha nurlaridan himoya qiladi. A vitamini ko'rish organlarining sog'lig'iga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Ko'katlar** – petrushka, ukrop, shpinat immunitet tizimini faollashtirishga yordam beradi. Ularda turli xil vitaminlar va antioksidantlar mavjud. Flavonoidlar va karotenoidlar ORVI infeksiyalarini oldini olishga yordam beradi. C, E kabi vitaminlar immunitet tizimining shilliq qavatlarining butligini tiklash orqali sog'liq uchun xavfli patogenlarga qarshi kurashishda yordam beradi.

**Umida NABIEVA,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasining  
Immunologiya va inson  
genomikasi instituti Autoimmun  
holatlar laboratoriyasi mudiri.